

KORPUS ASOSIDA BOLALAR ASSOTSIATIV LUG‘ATINI TUZISH VA UNING ILMIIY, AMALIIY AHAMIYATI

Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

abduraxmonovasohiba16@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqola bolalar assotsiativ lug‘atini tuzish va uning ilmiy, amaliy ahamiyatini qamrab oladi. Maqolada korpus asosida bolalar assotsiativ lug‘atini tuzish hamda bolalarda yuzaga keladigan assotsiatsiyalarga alohida to‘xtalib psixolingvistik tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** korpus, assotsiatsiya, stimul so‘z, javob reaksiyasi, eksperiment.*

СОСТАВ ДЕТСКОЙ АССОЦИАТИВНОЙ СЛОВАРИКИ НА ОСНОВЕ КОРПУСА И ЕГО НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

***Аннотация.** В данной статье рассматривается создание детской ассоциативной лексики и ее научно-практическое значение. В статье рассматривается создание детской ассоциативной лексики на основе корпусного и психолингвистического анализа с особым упором на ассоциации, возникающие у детей.*

***Ключевые слова:** корпус, ассоциация, слово-стимул, ответная реакция, эксперимент.*

COMPOSITION OF CHILDREN’S ASSOCIATIVE VOCABULARY BASED ON CORPUS AND ITS SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE

***Annotation.** This article covers the creation of children’s associative vocabulary and its scientific and practical significance. The article deals with the creation of children’s associative vocabulary based on the corpus and psycholinguistic analysis with special emphasis on the associations that occur in children.*

***Key words:** corpus, association, stimulus word, response reaction, experiment.*

Kirish. Assotsiativ lug‘at psixolingvistikada yangi shakldagi lug‘at hisoblanadi. Bunday lug‘atlar insonning lisoni, xotirasi, tasavvuri, so‘z boyligini ko‘rsatib beradi. Bu tipdagi lug‘atlar muayyan tilning lug‘at tarkibini tekshirish, til egalarining leksik zahirasi, xotirasi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish, olam haqidagi tasavvurlari, bilimining tilda aks etish masalasini o‘rganish, tilni me‘yorlashtirish kabi maqsadlarni ko‘zda tutadi. Assotsiativ lug‘atlar til egalarining ijtimoiy-tarixiy xotirasi ichiga kirishga imkon beruvchi lug‘atlar hisoblanadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Mazkur ishning asosiy **maqsadi** bolalar assotsiativ lug‘atini korpus asosida tashkil qilish va uni psixolingvistik tahlil qilish.

Tadqiqot maqsadiga bog‘liq holda, mazkur ishda quyidagi **vazifalarni** ko‘rib chiqish belgilangan:

- Bolalar nutqiga doir assotsiativ lug‘atlar haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash;
- Korpus asosida bolalar assotsiativ lug‘atini yaratish maqsadida tajriba o‘tkazish;
- O‘tkazilgan tajriba asosida bolalarga xos xususiyatlarni psixolingvistik tahlil qilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni o‘rganish maqsadida tajriba uchun 30 nafar sinaluvchi(46ta qiz bola, 40ta o‘g‘il bola), 80ta stimuly so‘z tanlab olindi. Tajriba asosida bolalar assotsiativ lug‘ati korpusda shakllantirildi.

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. Jahon tilshunosligida ilk “Study of association in Insanity” nomli assotsiativ lug‘at 1910-yilda ingliz olimlari X.G.Kent va A.J.Rozanov tomonidan tuzilgan. Bu lug‘at 18 yoshdan 87 yoshgacha bo‘lgan turli kasb egalarini qamrab olgan. Rus tilshunosligida 1977-yilda A.A.Leontyev tomonidan assotsiativ lug‘at yaratilgan. Tajriba 500 stimuly so‘zni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida ilk assotsiativ lug‘at professor D.Lutfullayeva rahbarligida yaratilgan. Unda 100ta stimuly so‘z va unga javob bo‘lgan 42645ta so‘z bo‘lgan. Lug‘atning ahamiyatli jihati shundaki, unda yuqori chastotali so‘zlar emas, balki milliy-madaniy birliklar tanlab olingan. Assotsiativ tajribaning bog‘li usulidan qo‘llangan. Hozirgi kunda ushbu lug‘at antropotsentrik yo‘nalishlar bo‘yicha yaratilgan asosiy lug‘atlardan biridir. “Bolalar assotsiativ lug‘ati” o‘zbek tilida yaratilgan bolalar nutqi tadqiqi asosida yaratilgan. Ushbu lug‘at olimi Munavvara Qurbonova boshchiligida tuzilgan. Lug‘at erkin assotsiativ tajriba metodi asosida tuzildi. Stimuly sifatida 100 ta so‘z tanlab olindi.

Axborot-texnologiyalari rivojlanayotgan hozirgi zamonda assotsiativ tajribani korpus variatda yaratish va uni online tarzda tashkil qilish qulaylik yaratadi. Unda tajribani o‘tkazib, to‘plangan materiallarni qayta ishlash maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minot orqali amalga oshiriladi. Korpus asosidagi assotsiativ eksperimenti og‘zaki va yozma tajribalarni yig‘ib vaqtni sezilarli darajada tejashga xizmat qiladi va bunda so‘rovnomalar tartibli ravishda saqlanadi. Bu esa olib borilayotgan tadqiqotning

samarali bo'lishini ta'minlaydi. Assotsiativ lug'atni tashkil qilish uchun dastlab ma'lum miqdordagi nutq egalarida yozma va og'zaki assotsiativ tajriba o'tkaziladi. Tajriba davomida yig'ilgan materiallar elektron holda stimulyer so'zning assotsiativ maydoni tuziladi. Javob reaksiyalari statistik tahlil qilinadi va ularning miqdori, qo'llanish chastotasi, turli javob reaksiyalari aniqlanadi.

“Bolalar assotsiativ lug'ati”ni yaratish uchun erkin assotsiativ tajriba metodining og'zaki va yozma turi tanlab olindi. Tajriba uchun so'rovnomalar maktab darsligi asosida tuzildi. Tajribada ishtirokchilar ismi-familiyasi, yoshi, jinsi, ta'lim olayotgan muassasi kabi ma'lumotlar qayd etildi.

Lug'at statistikasi: 30 nafar sinaluvchi, 80ta stimulyer so'z, 2939ta javob reaksiyasi, 46ta qiz bola, 40ta o'g'il bola, yosh chegarasi 10-12 yosh.

Javob reaksiyalari qatorida sintaktik jihatdan so'z birikmasi va gap shaklidagi reaksiyalar miqdori salmoqli o'rinni egallagan bo'lib, so'z birikmalari asosan ot+sifat, sifat+ot, ot+fe'l qolipida. Gap shaklidagi reaksiyalar esa asosan, sodda yig'iq gaplardan iborat. Ba'zan soddagina yoyiq hamda qo'shma gaplarni ham ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi assotsiativ qatorida ularning uyadosh, sinonim yoki antonimlarini yozish kuzatilgan buni quyidagi jadvalda ko'ramiz.

Stimulyer so'z	Uyadoshlari	Sinonimlari	Antonimlari
Dangasa	7ta	-	1ta
Dumaloq	4ta	3ta	-
Gavhar	3ta	3ta	-
Daxshat	5ta	4ta	3ta
Olam	4ta	-	-
Duo	6ta	-	-
Imorat	3ta	-	-

Xulosa. Sinaluvchilar nutqi ustida o'tkazilgan assotsiativ tajriba natijalariga asosan, stimulyer so'zlarning mazmuni, ularning bolalar nutqida keng qo'llanilganiga ko'ra javob reaksiyalari bir-biridan farqli bo'ldi. Shuningdek, tajriba davomida bolalar nutqida individual xarakterga ega bo'lgan, so'z birikmasi va gap shaklidagi reaksiyalar ham kuzatildi. Ba'zi kuzatuvchilar so'zni bayon tarzida ham ifodalagan. Bolalarning lisoniy ongida hozir bo'lgan assotsiativ birliklarning xarakterli jihati shundaki, ular nutqida kattalardan farqli ravishda xayoliga kelgan ilk fikrni aytish kuzatiladi. Bu bolalardagi verbal assotsiatsiyaning o'ziga xos jihati sanaladi. Bolalarda asosan assotsiatsiya ko'ruv xotirasi bilan bog'liq. Shu sababli ham stimulyer so'zga aloqador bo'lmagan javoblar ham ko'p bo'lishi tabiiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi.monografiya,T.:2019
2. Леонтьев А. Основы психолингвистики. – М., 1997.
3. Сафонова О. Психолингвистика: новые технологии анализа поэтического текста. Учебное пособие. – Краснодар, 2012.
4. Усманова Ш. “Психолингвистика” фанидан маъруза курслари. – Тошкент: Университет, 2014.
5. Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2020. – 234 с.